

**GLOBALLASHUV SHAROITIDA MA’NAVIY HAYOTDA BAG‘RIKENGLIK
MADANIYATINING AHAMIYATI**

Azizqulov Akram Abdurahmonovich,

*Samarqand iqtisodiyot va servis instituti Ijtimoiy fanlar kafedrası mudiri
falsafa fanlari nomzodi, dotsent*

***Annotasiya.** Mazkur maqolada informasion globallashuv sharoitida yoshlarni milliy ma’naviy qadriyatlar asosida tarbiyalashda bag‘rikenglik madaniyati ahamiyati bayon etiladi. Maqolada shuningdek, Yangi O‘zbekistonda millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglik madaniyatini yuksaltirishga qaratilgan islohatlarning mazmuni yoritib beriladi.*

***Kalit so‘zlar:** Yangi O‘zbekiston, turkiy xalqlar, millatlararo totuvlik, diniy bag‘rikenglik, bag‘rikenglik madaniyati, milliy qadriyat.*

***Аннотация.** В данной статье описывается значение культуры толерантности в воспитании молодежи на основе национальных духовных ценностей в условиях информационной глобализации. В статье также освещается содержание реформ, направленных на повышение культуры межнационального согласия и религиозной терпимости в Новом Узбекистане.*

***Ключевые слова:** Новый Узбекистан, тюркские народы, межнациональное согласие, религиозная толерантность, культура толерантности, национальная ценность.*

***Abstract.** This article describes the importance of tolerance culture in educating youth based on national spiritual values in the context of information globalization. The article also highlights the content of the reforms aimed at enhancing the culture of interethnic harmony and religious tolerance in New Uzbekistan.*

***Keywords:** New Uzbekistan, Turkic peoples, interethnic harmony, religious tolerance, tolerance culture, national value.*

Globallashuv jarayonlari shiddat bilan kechayotgan hozirgi axborotlashgan jamiyat bosqichida sayyoramizning keyingi taqdiri ko‘p jihatdan kishilar o‘rtasidagi bag‘rikenglik madaniyatining darajasiga bog‘liq bo‘lib qolmoqda. Bashariyatga musibat va kulfatlar keltirgan jahon urishlari, katta-kichik mojaralarning barchasining asosini, kishilar o‘rtasidagi ishonchsizlik, ya’ni bag‘rikenglik madaniyati darajasining pastligidadir. Shu bois hozirgi tahlikali dunyoda davr talabi bo‘lgan bag‘rikenglik madaniyatini yoshlar ma’naviyatiga singdirib borish ta’lim-tarbiyaning asosiy vazifasi bo‘lishi lozim.

Bag‘rikenglik madaniyati chidamlilik, bardoshlik, toqatlilik, o‘zgacha qarashlar va harakatlarga hurmat bilan munosabatda bo‘lish, muruvvatlilik, himmatlilik, kechirimlilik, mehribonlik, hamdardlik kabi jihatlardan iborat bo‘lib, “boshqalar” hamda “o‘zgacha” narsalar, hodisalar va faoliyat shakllarini o‘ziga xos xususiyatlarini, ularning kelib chiqish sabablari, namoyon bo‘lish shakllarini to‘g‘ri tushinish va

anglashgni bildiradi. Bag‘rikenglik madaniyati fuqarolardan muayyan darajada bilim va shu bilim negizida shakllangan qadriyatlar tizimidan iborat”¹.

Yoshlarda bag‘rikenglik tuyg‘usini tarbiyalash Turon zaminida milliy qadriyat sifatida ko‘p asrlik tarixga egadir. Turon xalqlari turmush tarzida turli xil millat va elat vakillari bilan bag‘rikenglik va madaniy hamkorlikning azaldan mavjudligi, uning hozirgi kunda dunyo sivilizasiyasining beshiklaridan biri sifatida e’tirof etilishiga olib keldi. Respublikamiz Prezidenti ta’kidlaganidek: «...bizning qadimiy va saxovatli zaminimizda ko‘p asrlar davomida turli millat va elat, madaniyat va din vakillalari tinchtotuv yashab kelgan. Mehmondo‘stlik, ezgulik, qalb saxovati va tom ma’nodagi bag‘rikenglik bizning xalqimizga doimo xos bo‘lgan va uning mentalitetini tashkil etadi»².

Turon o‘lkasini «Buyuk ipak yo‘li» va «La‘l yo‘l»lari chorrahasida joylashganligi ajdodlarimiz tomonidan millatlararo totuvlik va madaniyatlararo hamkorlikning yaxshi rivoj topishiga zamin bo‘lgan. Madaniyatlararo hamkorlikning natijasi o‘laroq o‘lkamizda, ayniqsa, islomgacha va undan keyin ham turli xil elatlar o‘rtasida millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglik tamoili ajdodlarimizning ijtimoiy munosabatlarida muhim o‘rin egallagan. VIII asrgacha o‘lkamizda buddaviylik, nasroniylik, zardushtiylik, shomonizm, Moniy hamda Mazdak aqidalariga va shu kabi boshqa din va e’tiqodlarga amal qiluvchi ko‘plab elat vakillarining tinch murosa qilib yashashi bu – millatlararo va dinlararo bag‘rikenglik tamoyili bo‘lib, xalqlarimizning milliy qadriyati yuksakligidan dalolatdir. Shu jihatdan o‘lkamiz halqlari taraqqiyotida millatlararo bag‘rikenglik va madaniyatlararo hamkorlik uzoq tarixiy tajribaga egadir.

Informasion sivilizasiyaning hosilasi bo‘lgan bugungi kundagi globallashuv ijtimoiy-iqtisodiy hamkorlikdan tashqari madaniy ma’rifiy sohalarni ham qamrab olmoqdaki, bu o‘z navbatida xalqlar o‘rtasidagi millatlararo totuvlik va hamkorlikni yanada chambarchas qilib quymoqda.

Millatlararo hamkorlik, yani turli xalqlar va elatlar o‘rtasidagi ilmiy, madaniy aloqalar va yaqin munosabatlar kishilik sivilizasiyasi taraqqiyoti darajasini belgilovchi omillardan biridir. O‘lkamiz uchun milliy qadriyat sifatida shakllangan millatlararo totuvlik va madaniyatlararo hamkorlik bugungi kunda jahon hamjamiyatida umuminsoniy qadriyat sifatida etirof etilmoqda.

Turon azaldan qulay geopolitik mavqega ega bo‘lgan, turli sivilizasiya va madaniyatlar uyg‘unligini o‘zida ifoda etgan o‘lka bo‘lganligi bois, mamlakatimizda millatlararo

¹ А.Очилдиев. Бағрикенглик маданиятининг моҳияти ва структураси. ТИУ, -2бет

² Ш.Мирзиёев. Миллатлараро дўстлик ва ҳамжихатлик- халқимиз тинчлиги ва фаравонлигининг муҳим омилдир. /Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Республика байналминал маданият маркази ташкил этилганлигининг 25 йиллигига бағишланган учрашувидаги нутқи. Халқ сўзи. 2017 йил 25 январь, №18 (6712)

totuvlik va diniy bag‘rikenglikni taminlash siyosati davlat darajasida amalga oshirilmoqda.

Vatanimizda bugungi kunda millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglik siyosatining huquqiy, nazariy va amaliy asoslariga shart-sharoit yaratib berilgan. Respublikamizning birinchi Prezidenti tomonidan 1992 yildayoq “Fuqarolar tinchligi va millatlararo totuvlikni taminlash, Konstitusiyaviy tuzumga erishish kalitidir „ degan tamoyil barcha islohatlarning nazariy asosi bo‘lib kelmokda”³. Polietnik mamlakatimizda yashayotgan 130 dan ortik millat va elatlarning haq-huquqlari va erkinligi bosh qomusimiz orqali kafolatlangan. Millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglikni Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasining asosiy tamoyillaridan biri sifatida etirof etilganidir.

Millatlararo totuvlik va milliy bag‘rikenglik g‘oyalarini ijtimoiy munosabatlarda keng ko‘lamda rivojlanishi mustaqillikdan so‘ng o‘zgacha tus oldi. 1992 yilda Vazirlar Mahkamasining qaroriga muvofiq Respublika Baynalminal Madaniyat Markazi hamda viloyatlarda milliy madaniyat markazlarining tashkil etilishiga katta imkoniyatlar yaratildi. Agar Respublikamizda 1989 yilda 12 ta milliy madaniyat markazlari mavjud bo‘lgan bo‘lsa, hozirda ularning soni 137 tadan oshdi. Tarkibi va miqdori jihatidan qat’iy nazar har bir millat o‘z madaniy markazini tuzish huquqlariga ega. Agar 15000 ga yaqin xitoylar, 1300 ta litvaliklar va 2000dan kamroq dunganlarning ham milliy madaniy markazlari mavjudligini inobatga oladigan bo‘lsak, Respublikamizda har bir millat va elat vakillarining milliy qadriyatlari, urf-odat va rasm-rusmlari, tili va madaniyatini saqlash va rivojlantirishlari uchun huquqiy, nazariy va amaliy asoslarga keng imkoniyatlar yaratilganligini ko‘ramiz⁴.

Millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglikni ta’minlashga oid vazifalar hamma vaqt dolzarb ahamiyat kasb etadi. Xususan, Prezidentimiz Sh.Mirziyoyevning Oliy Majlisiga Murojaatnomasida shunday deyiladi: «Jamiyatimizda diniy konfessiyalar o‘rtasida hamjihatlik va fuqarolar totuvligini mustahkamlashni biz bundan buyon ham eng dolzarb va ezgu vazifamiz deb bilamiz» deyiladi⁵.

Mamlakatimizda ijtimoiy-siyosiy sohalardagi islohotlarning o‘ziga xos yangi davrida ham jamiyatimizda millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglik muhitini mustahkamlashga alohida e’tibor berilmoqda. Vatanimizning barqaror ijtimoiy – iqtisodiy taraqqiyoti yo‘nalishini belgilab bergan «2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha harakatlar strategiyasi»da barcha sohalar bo‘yicha vazifalar aniq belgilab berilganidir. Harakatlar strategiyasining beshinchi yo‘nalishida millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglikni

³ O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi // <https://constitution.uz/oz/clause/index>

⁴ Миллий маданий марказлар // <https://dkm.gov.uz/uz/millij-madaniy-markazlar>

⁵ Ш.Мирзиёев. Олий Мажлисга мурожаатнома //Халқ сўзи. 2017йил 22 декабр

ta’minlashga alohida e’tibor qaratiladi. Chunki polietnik davlatimizda barqaror ijtimoiy munosabatlarni ta’minlashda bu omil muhim ahamiyat kasb etadi.

Bugungi kunda Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi mamlakatimizdagi barcha millat va elat vakillarining har tomonlama kamol topishi, istedodi va salohiyatini to‘la ruyobga chiqarish va uni Vatan ravnaqi, yurt tinchligi va xalq farovonligi kabi ezgu maqsadlar sari safarbar etadi.

“O‘zbekiston - 2030” Taraqqiyo strategiyasida jamiyatimizda millatlararo totuvlik muhitini mustahkamlash va xorijiy mamlakatlar bilan do‘stlik aloqalarini rivojlantirishga oid alohida vazifalar belgilab berilgan. Xususan, «Yosh kitobxon» tanlovini qo‘shimcha ravishda 6 ta qoraqalpoq, tojik, qozoq, rus, qirg‘iz va turkman tillarida o‘tkazilishi jamiyatimizda millatlararo totuvlikning amaliy ifodasidir. Bundan tashqari mazkur strategiyada belgilab qo‘yilgan “Ta’lim xorijiy tillarda olib borilayotgan maktablardagi badiiy adabiyotlar fondini 2 baravarga oshirish” vazifasi ham mamlakatimizdagi barcha millat vakillarini milliy tillarida ma’naviy meroslaridan bahramand bo‘lishini ta’minlaydi.

Ayniqsa, “Millatlararo munosabatlar sohasida ilmiy-ommabop maqolalar sonini 3 baravarga oshirish” vazifasi avvalo mamlakatimizda bag‘rikenglik madaniyatini kengroq targ‘ib etishga qaratilgandir. Shuningdek, “Do‘stlik jamiyatlari sonini 60 taga yetkazish hamda birodarlashgan shaharlar sonini 2 baravarga oshirish” kabi vazifalarni amalga oshirilishi Yangi O‘zbekistonda tom ma’noda millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglik muhitini ta’minlashga xizmat qiladi⁶.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, avvalo, hozirgi kishilik jamiyati taraqqiyotiga xos bo‘lgan globallashuv sharoitida barqaror ijtimoiy munosabatlarning istiqboli uchun gumanitar madaniyatning muhim omili bo‘lgan millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglik tamoyili umuminsoniy qadriyat sifatida barcha xalqlar tomonidan qabul qilinmokda. Ikkinchidan bag‘rikenglik madaniyati yuqorida ta’kidlaganimizdek Turon xalqlari uchun milliy qadriyat sifatida ko‘p asrlik tarixga ega. O‘lkamiz xalqlari uchun millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglik ham milliy ham umuminsoniy qadriyatdir bo‘lganligi bois bugungi kunda barqaror ijtimoiy taraqqiyotimizda muhim omil bo‘lib hizmat qilmoqda. Uchinchidan Yangi O‘zbekistonda amalga oshiralayotgan islohatlarning muhim tamoyillaridan biri fuqarolarda bag‘rikenglik madaniyatini yuksaltirishga qaratilgandir. “O‘zbekiston - 2030” Taraqqiyot strategiyasida millatlararo totuvlik muhitini mustahkamlash va xorijiy mamlakatlar bilan do‘stlik aloqalarini rivojlantirishga oid vazifalar jamiyatda bag‘rikenglik madaniyatini mustahkamlashga qaratilgandir.

⁶ “Ўзбекистон - 2030” Тараққиё стратегияси Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармони, 11.09.2023 йилдаги ПФ-158-сон// LEX.UZ<https://lex.uz> > docs